

## О'QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANISHADA О'QUV MASHG'ULOTLARDA EKSKURTSIYALARNI TASHKIL KILISHDAN TURLARIDAN FOYDALANISH

*Muxtorov Umrbek Atanazarovich*  
*Urganch Davlat Universiteti*

**Annotatsiya :** Maqolada ekskursiya faoliyati turizm industriyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Ekskursiya dasturlari va ekskursiya xizmatlarini ta'minlamaydigan sayohatga, maqsadlaridan qat'i nazar, misollar keltirish qiyin. Bu nafaqat dam olish, dam olish, ekskursiya va o'quv dasturlarida bevosita ishtirok etish maqsadidagi sayohatlarga, balki, qoida tariqasida, ish dasturiga qo'shimcha ravishda, ekskursiya xizmatlari bilan birga olib boriladigan ishbilarmonlik maqsadlaridagi tashriflarga ham tegishli. Har qanday ekskursiyaning maqsadi birinchi navbatda ma'rifiy bo'lib, unda ishtirok etish ma'lum bir hududda sodir bo'lgan aniq faktlar, hodisalar, qiziqarli voqealar haqidagi bilimlarni, g'oyalarni kengaytirish imkonini beradi. Turli xil ekskursiya dasturlariga qiziqish tegishli statistik ma'lumotlarni aks ettirgan.

**Kalit so'zlar.** Ekskursiya xizmati, rekreatsion faoliyat. Global, geografik

**Kirish:** Tabiatni ekologik madaniyat nuqtai nazaridan o'zlashtirish hissiyotining, tafakkurining axloqiy qadriyatlarining mazmunini belgilaydigan mezonga aylanadi. Ayni paytda ekologik inqiroz va halokat oldini olishning tarixiy zaruriyati bu qarashlarni nazariy ong darajasiga ko'tardi. Ayniqsa, tabiatga antropogen va texnogen ta'sirning kuchayishi bilan ekologik madaniyatni rivojlantirishning ob'ektiv zaruriyati tushib etildi. Har qanday tarixiy davr rivojlanishining ichki harakatlantiruvchi mexanizmi tabiat va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarga bog'liq bo'lgan.

Bu ziddiyatlarning hal qilish vositalari ijtimoiy ongning turli shakllari, xususan, ekologik madaniyatning rivojlanishida o'z ifodasini topgan. Sayyoramizdagi havoning global isishi oqibatida keyin o'n yillikda 250 ming odam yashash joyini tashlab ketishga majbur bo'ldi.

**Asosiy qism:** Global isishdan va ekologik halokatlardaneng avvalo bolalar azyat chekmoqda. Hattoki rivojlangan mamlakatlarda ham globalisishdan aholining eng muhtoj va zaif qatlami zarar ko'radi. Bu haqida Bryusselda bo'lib o'tgan ekologik konferensiyada ham ma'lum qilindi.

Ekologik moddiy va ma'naviy merosni saqlash va rivojlantirish umumiy ijtimoiy rivojlanishning manfaatlaridan kelib chiqib, «tabiat-jamiyat-inson» majmuasida ularning mutanosibligini ta'minlovchi tarixiy asos sifatida namoyon bo'ladi.

Ayni damda yoshlarimizning ekologik huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi ekologik ta'lim-tarbiya umumiy ta'lim tizimining ajralmas bo'g'ini bo'lib, uning asosiy joyalarini o'zida mujassam etgan.

Ekologik madaniyatni oshirishda hozirgi kungacha ko'plab amaliy ishlar qilindi. Ekologik ta'lim kontseptsiyasining ishlab chiqilishi, ekologiyadan davlat ta'limi standartining yaratilishi, bir qancha dasturlar, to'plamlar chiqilgani, metodik qo'llanmalarning tayyorlanganligi, bir qator respublika miqyosida o'tazilgan anjumanlar shular jumlasidandir.

Bir qator muammolarni hal etish uchun O'zbekistonda yangi ijtimoiy harakatlar qatori ekologiya va salomatlik xalqaro jamjama "Ekosan" tashkil etildi.

«Ekskursiya xizmatini tashkil qilish» fanini o'qitishdan maqsad- talabalarni mamlakatimizning boy tarixiy merosi, ekologik- rekreatsion maskanlari, ishlab chiqarish obyektlari, ziyoratgohlar- da sifatli, xavfsiz ekskursiya xizmatlarini tashkil etish hamda ulardan turizm sohasida samarali foydalanish bo'yicha bilimlar berishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun fanning oldida quyidagi vazifalar qo'yilgan: Iliqroq harorat tropik dovullar va toshqinlarning ko'payishiga olib keladi. Muzliklarning erishi uzoq muddatda dengiz sathining oshishiga yetaklab, suv bo'yidagi shaharlar xavf ostida qoladi.

Ekskursiya xizmatining mazmun-mohiyatini tushuntirish. Ekskursiya xizmatining funksiyalari, xususiyatlari va ekskursiya xizmatini tasniflashni o'rgatish.

Ekskursiya rahbari - gidga qo'yiladigan talablarni o'rgatish.

Ekskursiya xizmatini tayyoriash texnologiyasini o'rgatish.

Ekskursiya obyektlarini tanlash va baholash.

Ekskursiya xizmati marshrutini tuzish va sinov ekskursiyasini o'tkazish tartibini o'rgatish. Ekskursiya xizmatida obyektlarni ko'rsatish usullarini aniqlash; Ekskursiya xizmatida obyektlarni hikoya qilish usullarini aniqlash.

Ekskursiya xizmatining tashkiliy masalalari. O'zbekistonning tarixiy- arxitektura yodgorliklariga ekskursiya xizmatini tashkil qilishni o'rgatish. O'zbekistonning ekologik hududlariga ekskursiya xizmatini tashkil qilishni o'rgatish.

Turizmning maxsus turlariga ekskursiya xizmatini tashkil qilishni o'rgatish. Ekskursiya xizmatida ekskursantlarning xavfsizligini ta'minlash. Ekskursiya xizmatida birinchi tibbiy vordamni ko'rsatish qoi- dasini o'rgatish..

Ekologik turizm o'tgan asming oxirlaridan boshlab jahon turizmi industriyasiga asta-sekin kira boshladi. Butunjahon turizm tashkilotining ma'lumotlari bo'yicha keyingi besh yilda ekologik turizmga turistlar oqimi tobora ko'payib borayotganligi haqida hisob-kitob natijalari keltirilgan. Ushbu turizm yo'nalishida janubiy Yevropa, Janubiy - sharqiy Osiyo, kichik Osiyo, Xitoy va Afrika qit'asidagi davlatlar oldingi o'rinlarda borishmoqda.

Albatta, qayd qilingan geografik tabiiy manzillar betakror tabiat mintaqalar bo'lib, doimiy bahor va yoz iqlimiga ega boigan davlatlarning tabiatdagi biologik xilma-xillik resurslari, sharoitlari bu mintaqalarda yil davomida turistlar oqimining ko'payishini ta'minlaydi, imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi kunga kelib jahonda ekologik turizm jadal suratlar bilan rivojlanib borayotgan turizmning tarmoqlaridan biriga aylandi.;

ekoturizm industriyasini shakllantirish uchun maxsus qonunlarni ishlab chiqish va ularning huquqiy mexanizmini yaratish;

- ekoturistik fan, ta'lim va amaliyotning nazariy asoslarini ishlab chiqish;
- aholining ekologik ongi va madaniyatini ekoturizm orqali o'stirish;
- ekoturizm yo'nalishidagi ta'lim va tarbiyani yo'lga qo'yish;
- ekoturizm bo'yicha mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash;
- ekoturistik obyektlarni har tomonlama baholash va ularning tijjig kadastrini olib borish;
- ekoturizm monitoringi va istiqbolini olib borishni yo'lga qo'yish;
- milliy davlat hududlarini ekoturizm bo'yicha rayonlashtirish;
- davlatlarning va xalqaro jamiyatning ekoturizmga oid taktilik reja va strategik dasturlar hamda tadbirlarini ishlab chiqish;
- biplogik xilma-xillikni saqlash. Qayd qilingan vazifalarni bajarishda quyidagi ekoturistik tamoyillarni, ya'ni ekologik munosabatlarni turizm orqali tartibga solishga yo'naltirilgan qoidalarga qattiq, mas'uliyat bilan rioya qilish talab qilinadi:
- ekoturizmda tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlantirish masalalarining ustuvorligi;

**Xulosa:** ekoturizm obyektlarida aholini ish bilan ta'minlash, ijtimoiy muhofaza qilish muammolarini hal qilish; ekoturizm qadamjoylarida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish orqali qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, turistik infiraturizmalarni hosil qilish; ekoturizmning jahon talablariga javob beraoladigan moddiy-texnik, axborot-tahliliy bazasini yaratish xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish; ekoturizm maskanlarini elektr energiyasi va issiq suv bilan ta'minlash maqsadida ekologik toza, qayta tiklanuvchi muqobil energiya qurilmalari yordamida foydalanishni keng yo'lga qo'yish kerak

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Foydalanilgan adabiyotlar: 1. Alekseeva N.D. "Turistik yo'nalishni ishlab chiqish texnologiyasi" fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma. Tolyatti: PVGUS nashriyoti, 2016.
2. Emelyanov B. V. 'Ekskursiyalar'.
3. Skobeltsina A.S., Sharuxin A.P. 'Ekskursiya xizmatlari texnologiyasi va tashkil etish'. 2 Emelyanov B. V. Turistik rahbar. S.